

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**FARXODOV FARRUX FURQATOVICH**

**XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA BOJXONA  
XIZMATI FISKAL FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Farxodov Farrux Furqatovich**

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida bojxona xizmati fiskal faoliyatini  
takomillashtirish..... 3

**Фарходов Фаррух Фурқатович**

Совершенствование фискальной деятельности таможенной службы в  
процессах международной экономической интеграции..... 29

**Farxodov Farrux Furqatovich**

Improving the fiscal activity of the Customs Service in the processes of  
international economic integration..... 59

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 64

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**FARXODOV FARRUX FURQATOVICH**

**XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA BOJXONA**  
**XIZMATI FISKAL FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt2787 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Pardayev Tulkin Nasirovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Karlibayeva Raya Xojabayevna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Pardayev Jamshid Muzaffarovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston Respublikasi Bank - moliya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "08" 01 soat 16<sup>00</sup> daqi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.:(99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1865 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "23" 12 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "23" 12 daqi 2 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.H. Mexmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V. Gafurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**S.K. Xudoyqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish mamlakatlar tashqi iqtisodiy munosabatlari shaffofligini ta'minlash, soliq-bojxona tushumlarining barqarorligini oshirish va xalqaro savdo jarayonlarining tranzaksion xarajatlarini kamaytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy fiskal mexanizmlar - riskka asoslangan nazorat, raqamli deklaratsiya, integratsiyalashgan ma'lumotlar almashinuvi va "Yagona darcha" tizimlari bojxona to'lovlarini aniq hisoblash, soliqdan bo'yin tovlash xavflarini kamaytirish va budjetga tushumlarning oshishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, Jahon bojxona tashkiloti, Jahon bank va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan yuritilgan qiyosiy tahlillar bojxona fiskal funksiyalari samaradorligi mamlakat investitsion jozibadorligi va tashqi savdo hajmlarining o'sishi bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Xususan, Jahon bojxona tashkiloti tadqiqotlariga ko'ra, "raqamlashtirilgan fiskal boshqaruvni joriy etgan mamlakatlarda to'ldirilgan import deklaratsiyalarini qayta ishlash vaqti o'rtacha 30-40% ga qisqargan"<sup>1</sup>. Shuningdek, fiskal faoliyatni takomillashtirish bojxona xizmatlarining prognozlash, audit va tahlil funksiyalarini kuchaytirib, global iqtisodiyotda raqobatbardosh va barqaror fiskal infratuzilmani shakllantirishni ta'minlaydi. Bundan ko'rinadiki, samarali fiskal bojxona boshqaruvi mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligi, budjet barqarorligi va xalqaro savdodagi integratsiyasini chuqurlashtiruvchi strategik omil hisoblanadi.

Jahonda bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish bo'yicha asosan raqamlashtirish, riskka asoslangan nazorat tizimlarini chuqurlashtirish, xalqaro ma'lumotlar integratsiyasini kengaytirish va fiskal shaffoflikni oshirish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ilmiy izlanishlar elektron deklaratsiya, blokcheynga asoslangan tranzaksiya nazorati, "Yagona darcha" platformalari, avtorasmiylashtiruv va sun'iy intellekt yordamida kelib chiqishi mumkin bo'lgan soliq-bojxona xatarlarini kamaytirish imkonini beradigan intellektual audit modellarini takomillashtirishga qaratilmoqda. Shu bilan birga, xorijdagi tadqiqotlarda fiskal faoliyatning samaradorligini soliqdan qochish sxemalarini aniqlovchi Big Data tahlillari, transchegaraviy savdoda raqamli iz qoldiruvchi identifikatsiya mexanizmlari va budjet tushumlarining prognoz modellari orqali baholash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Zamonaviy yondashuvlarda bojxona fiskal siyosatining savdo erkinlashuvi, standartlashtirilgan tarif yuklamalari va xalqaro bog'liqlikni kamaytiruvchi qoidalar bilan uyg'unlashuvi ham alohida tadqiq etilmoqda, bu esa fiskal samaradorlikni oshirish bilan birga, global ta'minot zanjirlari barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish borasidagi islohotlar asosan raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish, fiskal shaffoflikni oshirish va bojxona-tarif ma'murchiligining samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, ular milliy iqtisodiyotda soliq-bojxona tushumlarini barqaror oshirishga xizmat qilmoqda. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida E-Tranzit,

---

<sup>1</sup> World Customs Organization, Customs Modernization Report, 2022.

“Yagona darcha” bojxona axborot tizimi, mukammal xavflarni baholash tizimi, avtorasmiylashtiruv va tovarlarni dastlabki deklaratsiyalash orqali import bojxona rejimiga rasmiylashtirishni joriy etilishi natijasida bojxona orqali ro‘yxatdan o‘tayotgan yuklarning rasmiylashtirish vaqti bir necha barobar qisqardi, ma‘muriy yuklamalar kamaydi va fiskal nazoratning aniqligi oshdi<sup>2</sup>. Ushbu vazifalarning samarali ijrosini ta‘minlashda bojxona to‘lovlarini aniq hisoblash hamda belgilangan muddatlarda to‘liq undirish jarayoniga alohida e‘tibor qaratilishi lozim. Chunki bojxona to‘lovlarining to‘g‘ri hisoblanishi va o‘z vaqtida budjetga tushirilishi fiskal barqarorlik va iqtisodiy boshqaruvning muhim omillaridan biridir. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, fiskal faoliyatni kompleks tadqiq qilish, uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlarini belgilab olish dolzarb masala hisoblanadi. Bu erda bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PF-57-son “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son “Bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” Strategiyasini tasdiqlash va samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024-yil 25-dekabrdagi PQ-455-son “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Soliqlar va bojxona to‘lovlarining tashkiliy-huquqiy asoslari, ularning vujudga kelishi hamda rivojlanishining umumnazariy jihatlari va metodologik asoslari xorijlik iqtisodchi olimlardan A.N.Kozirin, M.Jamkeeva, V.V.Popov, I.V.Gomon, M.V.Vasileva,

---

<sup>2</sup> Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 apreldagi PF-122-son “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5998615>

Ye.V.Chipurenko, V.G.Svinuxov va boshqalarning asarlarida o‘z aksini topgan<sup>3</sup>.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.A.Alimbayev, S.A.Aripov, Sh.N.Boymuradov, R.A.Turapov, T.N.Pardayev, A.A.Shadmankulov, Sh.O‘.Azizov, Z.X.Makkamov, O.A.Sarmanov va boshqalarning asarlarida bojxona xizmati fiskal faoliyati, bojxona to‘lovlarini hisoblash tartibi, undirish va davlat budgetiga o‘tkazish hamda bojxona qiymatini aniqlashning nazariy va tashkiliy-huquqiy jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa<sup>4</sup>, yana bir guruh olimlarimiz H.P.Abulkasimov, A.A.Mamatov, S.A.Mamatov, L.N.Saidgaziyeva, B.O.Tursunov, Sh.I.Omonova, L.N.Xalikova, B.A.Iskandarov, M.N.Umarova, B.I.Ismoilov va boshqalarning tadqiqotlarida iqtisodiy xavfsizlik, fiskal faoliyat, fiskal siyosat va soliq to‘lovchilar faoliyatini tartibga solishning nazariy masalalari va tahlilining metodologik asoslari keng yoritilgan<sup>5</sup>.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta‘minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida bojxona xizmati fiskal faoliyatining o‘rni va ahamiyatini ochib berish;

---

<sup>3</sup> Козырин А. Таможенная пошлина / Москва. 1998. S.299., Жамкеэва М. Мировой опыт таможенно-тарифного регулирования внешнеэкономической деятельности // Актуальные проблемы экономики, 2012, №9(135). – S.303., Попов V.V. Формирование методологии многоуровневого экономического анализа таможенных платежей. Диссертация. Оренбург - 2023., Гомон I.V., Непарко M.V., Решетова N.I. Таможенные платежи как основа формирования федерального бюджета. Экономика и предпринимательство. 2017;(9–3):37–40., Василева M.V. Учётно-информационная база проведения налогового анализа как этапа налогового планирования на микроуровне /M.V. Василева// Управленческий учет. - 2010. №1. С. 18.; Чипуренко Ye.V. “Методология налогового анализа и отсенки влияния системы налогообложения на деятельность коммерческих организаций”. Автореферат дис.д.э.н. М.: 2011. 16-17 с.;Свинухова V.G. Таможенное дело.М.2005 г. с.251.

<sup>4</sup> Alimbayev S.A. O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududida tovar ayirboshlashning tashkiliy huquqiy muammolari. yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: - 2003. -181 b.; Aripov S. Tashqi savdoni bojxona to‘lovlari orqali tartibga solishni takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. av. T.:2009. -24 b.; Boymuradov Sh.N. Bojxona sohasida davlat boshqaruvining tashkiliy huquqiy shakllari. yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avt. –T.: 2006. -161 b.; Turapov R.A. O‘zbekiston Respublikasi bojxona faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. -T.: 2006. -283 b.; Pardayev T.N., Shadmankulov A.A., Makkamov Z.X. Bojxona to‘lovlari. // Darslik — Toshkent: Bojxona instituti, 2021-yil, 385 bet.; Azizov Sh.O‘. Bojxona auditi metodologiyasini takomillashtirish: fan doktori (DSc) ilmiy darajasi bo‘yicha dis.avt. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/101923>; Makkamov Z.X. Bojxona to‘lovlari auditini takomillashtirish istiqbollari: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD) dis. avt.–T.:2022. Sarmanov O.A. O‘zbekistonda bojxona to‘lovlari hisobi va tahlilini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.

<sup>5</sup> Abulkasimov H.P., Mamatov A.A., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.S. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik. , -Toshkent. 2022.- 732 b., Tursunov B.O. Iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019. – 240 b., Omonova Sh.I. Davlat fiskal siyosatining nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent, 2020. – 198 b., Khalikova L.N. Iqtisodiy xavfsizlik va fiskal faoliyatning o‘zaro bog‘liqligi. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2021. – 176 b., Iskandarov B.A. Fiskal siyosat va soliq to‘lovchilar faoliyatini tartibga solish. – Toshkent, 2020. – 215 b., Umarova M.N. Iqtisodiy xavfsizlik va fiskal faoliyatning metodologik asoslari, Toshkent, 2019. - 203 b., Ismoilov B.I. Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda fiskal siyosatning ahamiyati. – Toshkent, 2020. – 187 b.

bojxona xizmati fiskal faoliyatini amalga oshirishning nazariy va huquqiy asoslarini o'rganish;

bojxona xizmati fiskal faoliyatini amalga oshirishda xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish;

bojxona xizmatida fiskal faoliyatni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish;

davlat budjetiga undiriladigan bojxona to'lovlari va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tadqiq qilish;

bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirishda avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq qilish;

ilg'or xorijiy tajribalar asosida bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining fiskal faoliyati tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida tizimli yondashuv, guruhlashtirish, solishtirma tahlil, iqtisodiy-siyosiy tahlillar, ekonometrik modellash, korrelyatsion va regressiya tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

deklarant yoki deklaratsiyalovchi shaxsning bojxona yuk deklaratsiyasiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish bo'yicha murojaatiga asosan bojxona yuk deklaratsiyasini o'zgartirish va (yoki) unga qo'shimcha kiritish uchun (qog'oz shakldagi bojxona yuk deklaratsiyasida bir dona bojxona yuk deklaratsiyasi, elektron shakldagi bojxona yuk deklaratsiyasida bir dona bojxona yuk deklaratsiyasini tuzatish shakli uchun) bojxona yig'imi joriy etish taklifi asoslangan;

bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar turkumlarga ajratilib, bojxona to'lovlari miqdoriga ta'siri o'rganilgan hamda bojxona organlari tomonidan davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlarning miqdori tahlil qilinib, ularning 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarning summasi bojxona organlari tomonidan "ariza ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlari qonunchilikda belgilangan tegishli muddatlar tugaganidan keyin berilgan bo'lsa va uning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining yigirma foizidan oshmasa" qaytarmaslik bo'yicha taklifi asoslangan;

agar ayni bir shaxs tomonidan muayyan vaqt ichida bir necha bojxona operatsiyasi amalga oshirilsa, barcha bunday bojxona operatsiyalarini bajarish chog'ida yuzaga keladigan bojxona to'lovlari to'lashni ta'minlash uchun bojxona to'lovlari to'lashning bosh ta'minotini qo'llash bo'yicha taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

"bojxona xizmati fiskal faoliyati" tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilib, uning mamlakat fiskal faoliyati tarkibiy qismlari bilan umumiy va xususiy jihatlari qiyoslangan;

qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarning undirilmaydigan va qaytarilmaydigan miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizigacha etib

belgilash bo'yicha taklifi asoslangan;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan olib kiriladigan tovarlari uchun to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari to'g'risida oldindan axborot olishini ta'minlash maqsadida "Bojxona to'lovlari bo'yicha dastlabki qaror olish interaktiv xizmati" yaratilgan;

jismoniy shaxslardan bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida "infoCustomsUzBot" telegram-boti ilmiy ishlanma yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot, iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy va nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, shuningdek, xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va umumlashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari tahlili natijalariga asoslanganligi orqali namoyon bo'ladi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, unda taqdim etilgan nazariy va uslubiy tavsiflar asosida, bojxona xizmatining fiskal faoliyati jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni vaqtida hal etish va ushbu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa olingan uslubiy tavsiyalar bojxona xizmatining fiskal faoliyatini yaxshilash, bojxona to'lovlarini samarali undirish va ularni davlat budjetiga o'z vaqtida o'tkazishga yordam berishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

deklarant yoki deklaratsiyalovchi shaxsning bojxona yuk deklaratsiyasiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish bo'yicha murojaatiga asosan bojxona yuk deklaratsiyasini o'zgartirish va (yoki) unga qo'shimcha kiritish uchun (qog'oz shakldagi bojxona yuk deklaratsiyasida bir dona bojxona yuk deklaratsiyasi, elektron shakldagi bojxona yuk deklaratsiyasida bir dona bojxona yuk deklaratsiyasini tuzatish shakli uchun) bojxona yig'imi taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi "Bojxona yig'implari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida" 700-son qaroriga 1-ilovaning 2-bandida joriy qilingan (Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2024-yil 16-sentabrdagi 8/25-24-0070-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bojxona xizmati tomonidan davlat budjetiga 2024-yilda 4,6 mlrd so'm qo'shimcha bojxona to'lovlari undirilishiga erishilgan;

bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar turkumlarga ajratilib, bojxona to'lovlari miqdoriga ta'siri o'rganilgan hamda bojxona organlari tomonidan davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlarining miqdori tahlil qilinib, ularning 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Bojxona qo'mitasi tomonidan davlat budjetining tushumlari prognozi shakllantirishda foydalanilgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2024-yil 16-sentabrdagi 8/25-24-0070-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga

joriy etilishi natijasida bojxona to'lovlarining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish taomillari takomillashgan;

ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summasi bojxona organlari tomonidan "ariza ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarini qonunchilikda belgilangan tegishli muddatlar tugaganidan keyin berilgan bo'lsa va uning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining yigirma foizidan oshmasa" qaytarmaslik bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining bojxona kodeksiga bojxona tartib-taomillarini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-913-son Qonunining 37-bandida o'z aksini topgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2024-yil 16-sentabrdagi 8/25-24-0070-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining qaytarilish jarayonini yanada tartibga solishga xizmat qilib, ushbu me'yor bojxona organlari uchun ma'muriy yukni kamaytirib, kichik miqdordagi ortiqcha to'lovlarni qaytarish bilan bog'liq ortiqcha hujjat aylanishini qisqartirishi orqali fiskal boshqaruv samaradorligini oshirish hamda biznes subyektlari uchun bojxona jarayonlarini soddalashtirishga imkon yaratgan;

agar ayni bir shaxs tomonidan muayyan vaqt ichida bir necha bojxona operatsiyasi amalga oshirilsa, barcha bunday bojxona operatsiyalarini bajarish chog'ida yuzaga keladigan bojxona to'lovlarini to'lashni ta'minlash uchun bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minotini qo'llash bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining bojxona kodeksiga bojxona tartib-taomillarini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-913-son Qonunining 34-bandida o'z aksini topgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2024-yil 16-sentabrdagi 8/25-24-0070-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bojxona to'lovlarini davlat budjetiga tushishini kafolatlash tizimi takomillashgan hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoit yaratish bilan birga, bojxona xizmati fiskal faoliyati ishonchligini oshirish va davlat daromadlarining barqarorligini ta'minlashga erishildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 34 ta ilmiy ish, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan 6 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 124 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bojxona xizmati fiskal faoliyatining nazariy-metodologik hamda normativ-huquqiy asoslari”** deb nomlanib, unda bojxona xizmati fiskal faoliyatining mohiyati, zarurati va ularni huquqiy asoslari, bojxona to‘lovlari turlari, bojxona boji stavkalarini tahlili hamda, bojxona xizmati fiskal faoliyatini rivojlantirish istiqbollari va uslubiy jihatlarini takomillashtirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida bojxona xizmati fiskal faoliyatini ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro prinsiplar va normalarni inobatga olgan holda optimallashtirib borish va takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonda belgilangan Davlat dasturining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash” yo‘nalishida – “Davlat budjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta‘minlash” vazifasi belgilab berildi<sup>6</sup>.


Mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida bojxona xizmatining fiskal vazifasi ham muhim ahamiyatga ega. Bojxona xizmati fiskal faoliyatini olib borish jarayonida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlaydi. Bojxona organlari fiskal faoliyatini olib borish orqali, bojxona chegarasidan olib o‘tiladigan tovarlardan to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlari, ya‘ni bojxona boji, aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda bojxona yig‘imlarini hisoblash, undirish va davlat budjetiga o‘tkazish kabi vazifalarni bajaradi.

Bojxona to‘lovlari bu – bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishda bojxona organlari tomonidan undiriladigan qonunchilikda belgilangan bojxona boji, soliqlar va bojxona yig‘imlaridir. O‘zbekiston Respublikasi bojxona kodeksiga muvofiq, tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tishda va boshqa bojxona tartib-taomillarini bajarishda bojxona organlari tomonidan undiriladigan bojxona to‘lovlari turlari: bojxona boji, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i mavjud. Shu bilan birga, bojxona to‘lovlari stavkalarining advalor, xos, aralash turlari mavjud (1-rasm).

---

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 Farmoni [https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144)

Bojxona to'lovlari davlat budjeti daromadlarini ko'paytirish, tashqi savdoni tartibga solish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.



**1-rasm. O'zbekistonda bojxona to'lovlari va stavkalarni turlari<sup>7</sup>**

Bojxona organlari faoliyati davlat moliyaviy tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u orqali tashqi savdo jarayonlarida iqtisodiy manfaatlar muvozanatini ta'minlash mexanizmlarni amalga oshiradi. Shu nuqtai nazardan, bojxona tizimining samarali faoliyat yuritishi davlat fiskal siyosatining izchil amalga oshirilishi hamda budjet daromadlari barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi global iqtisodiy murakkab sharoitda har bir davlatning fiskal siyosatini samarali yuritishi va davlat budjeti daromadlarini barqaror ta'minlashida bojxona to'lovlari muhim o'rin tutadi. Bojxona xizmati orqali undiriladigan bojxona to'lovlari nafaqat fiskal funksiyani, balki mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va ichki bozorni himoya qilish kabi strategik vazifalarni ham bajaradi.

O'zbekistonda bojxona to'lovlarini hisoblash, yig'ish va davlat budjetiga o'tkazish jarayonlarini, bojxona xizmatining fiskal funksiyasini tahlil qilgan iqtisodchi olim T.N.Pardayev o'zining ilmiy ishlarida bojxona organlarining fiskal faoliyati bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarini olib o'tishda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilaridan bojxona to'lovlarini undirish yo'li bilan davlat budjeti daromadini shakllantirish hisoblanadi deb aytgan<sup>8</sup>. Iqtisodiy adabiyotlarda bojxona xizmati fiskal faoliyati tushunchasiga iqtisodchi olimlarning bergan tariflari va yondashuvlari 1-jadvalda berilgan.

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>8</sup> Pardayev T.N. Bojxona xizmatining fiskal faoliyati. O'quv qo'llanma. – T.: 2022. b. 258.

## 1-jadval

### Bojxona xizmatining fiskal faoliyatiga iqtisodchi olimlarning tariflari va yondashuvlari<sup>9</sup>

Mualliflar	Mavzuga oid adabiyot mualliflarining talqini
Pardayev T.N.	bojxona organlarining fiskal faoliyati bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarini olib o'tishda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilaridan bojxona to'lovlari undirish yo'li bilan davlat budjeti daromadini shakllantirish hisoblanadi <sup>10</sup> .
Aripov S.	bojxona qonunchiligida boj tarifi va boshqa bojxona to'lovlari qo'llash tizimi, shu jumladan, tovarlarning bojxona qiymatini to'g'ri aniqlashni takomillashtirish hisobiga har bir bojxona faoliyatidan tushayotgan to'lovlar samaradorligini oshirishga olib keladi. <sup>11</sup>
Makkamov Z.X.	O'zbekistonda bojxona nazoratini samarali amalga oshirish maqsadida bojxona auditini "kameral" hamda "sayyor" shakllarda amalga oshirish hamda bojxona to'lovlari auditini takomillashtirish yo'nalishlari sifati bojxona to'lovlari berilgan imtiyozlarni nazorat qilish va bojxona qiymatini to'g'ri aniqlanganligini tekshirish belgilab olingan. <sup>12</sup>
Sarmanov O.A.	Bojxona to'lovlari tahlili deganda – bojxona to'lovlari umumiy hajmi, turlari, to'lash muddatlari va stavkalariga amal qilinishi, bojxona to'lovlari miqdorini o'zgarishi dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillarni kompleks o'rganish tushuniladi <sup>13</sup>
Adam Drozdek	bojxona ma'muriyatlarining fiskal va nazorat funksiyalarini tahlil qilib, bojxona organlari soliq va boj yig'implari orqali davlat budjetining barqaror manbasini ta'minlaydi va ular mamlakat iqtisodiy xavfsizligini muhofaza qiladi <sup>14</sup> .
Klaus Vogel	Bojxona to'lovlari fiskal funksiyaning asosiy ko'rinishi bo'lib, davlatning iqtisodiy mustaqilligi va budjetni to'ldirish uchun muhim vositadir. Bojxona organlari faqatgina daromad to'lovchi emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik tuzilmadir <sup>15</sup> .
Boris Kormich	Bojxona organlarining fiskal vazifasi – nafaqat daromad yig'ish, balki tashqi savdo oqimlarini nazorat qilish va milliy bozorni tashqi iqtisodiy ta'sirlardan himoya qilishdir. <sup>16</sup>
Del Villar va Gonzalez Jazmin	Fiskal funksiya bojxona organlarining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, unda davlat daromadlarini to'ldirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bir vaqtda amalga oshiriladi <sup>17</sup> .
Kezichev I.	bojxona organlarining fiskal funksiyaci - bojxona to'lovlari orqali davlat budjeti daromad qismini shakllantirishda bojxona organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'riflaydi <sup>18</sup> .

Yuqoridagi yondashuvlar yuzaga kelayotgan zamonaviy tendensiyalarga muvofiq mualliflik yondashuvini yuzaga keltirdi. Bizning fikrimizcha, "Bojxona

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>10</sup> Pardayev T.N. Bojxona xizmatining fiskal faoliyati. O'quv qo'llanma. – T.: 2022. b. 258.

<sup>11</sup> Aripov S. Tashqi savdoni bojxona to'lovlari orqali tartibga solishni takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2009. -24 b.

<sup>12</sup> Makkamov Z.X. Bojxona to'lovlari auditini takomillashtirish istiqbollari: i.f.f. (PhD) dis. avtoref. –T.:2022.

<sup>13</sup> Sarmanov O.A. Bojxona to'lovlari tahlilini tashkil etishning uslubiy jihatlari. // "Biznes-Ekspert" jurnali. – №11, 2023-y. – B.62-64.

<sup>14</sup> Drozdek, A. (2015). Fiscal and control function of customs administration with respect to the collection of customs and tax duties. Scientific Journal of Bielsko-Biala School of Finance and Law, 6(1), 32–58. 1

<sup>15</sup> Vogel K. Introduction to the Law of Double Taxation for Customs Duties, Oxford University Press, 2012.

<sup>16</sup> Kormych B. Development of the EU Customs Law: Between Integration and Sovereignty, 2020.

<sup>17</sup> González Aguirre, J., & Del Villar, A. (2022). Effect of the complexity of the customs tax system on the tax effort. Economies, 10(3), 55..

<sup>18</sup> Kezychev, I. (2020). Analysis of the execution by the customs authorities of the fiscal function in 2016–2019. Theory and Practice of Modern Science. <https://sciup.org/140275288>

xizmati fiskal faoliyati deganda – bojxona organlari tomonidan undirilishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlarni davlat budjetiga o‘tkazishni ta‘minlashdir”<sup>19</sup> - deb ta‘rif berish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Jahon savdo tashkiloti bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish arafasida turibdi. Bu esa bojxona to‘lovlari mexanizmlarining xalqaro standartlarga moslashtirilishini, ularning fiskal va tartibga solish funksiyalari o‘rtasida muvozanatni saqlash, axborot texnologiyalariga asoslangan zamonaviy infratuzilmani shakllantirish orqali to‘lovlarni undirishda shaffoflikni ta‘minlashni taqozo etadi.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan xorijiy davlatlar tajribalarini inobatga olgan holda, dissertatsiya ishida amaliy tahlillar asosida bojxona xizmatining fiskal faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kodi bo‘yicha tasniflanadigan ayrim tovarlar uchun import bojlari stavkalarini unifikatsiya qilish orqali turli stavkada noto‘g‘ri rasmiylashtirish holatlarining oldini olish;

import tovarlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalarini tabaqalashtirish orqali milliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish va strategik tovarlar importi uchun 0 foiz stavka joriy etish;

taqdim etilgan takliflar xorijiy davlatlar, jumladan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo mamlakatlar (Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Belarus) amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilingan holda ilgari surilgan bo‘lib, ularning O‘zbekiston shart-sharoitlariga moslashuvchanligi baholangan.

Shu tariqa, tadqiqot natijalari ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lib, amaliy islohotlar jarayoniga tatbiq etilishi mumkin. Ushbu takliflar xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida fiskal faoliyatni samarali tashkil etish borasidagi dolzarb muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining ushbu bobida xalqaro iqtisodiy integratsiya shakllari, bojxona xizmati fiskal faoliyatining nazariy asoslari, bojxona to‘lovlarining turlari va ularning iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashdagi o‘rni yoritilgan. Bojxona to‘lovlarni undirish va davlat budjetiga tushirish orqali amalga oshiriladigan fiskal funksiyaning ahamiyati tahlil qilingan. Iqtisodchi olimlar - Pardayev T.N., Aripov S.A., Makkamov Z.X., Sarmanov O.A. va xalqaro ekspertlarning yondashuvlari jadval shaklida umumlashtirilib, muallifning qarashlari hamda fikrlari bayon etilgan. Xususan, “bojxona xizmati fiskal faoliyati” tushunchasiga mualliflik tarifi ishlab chiqilgan. Bojxona to‘lovlari mexanizmi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” doirasida belgilangan fiskal barqarorlik maqsadlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan. Xorijiy davlatlar, ayniqsa Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari tajribasi asosida bojxona faoliyatini takomillashtirishga doir amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Ular qatorida import bojlari stavkalarini bixillashtirish, imtiyozlar nazoratini avtomatlashtirish, QQS siyosatini tabaqalashtirish va davlat budjeti daromadlarini oshirishga qaratilgan normativ o‘zgarishlar mavjud.

---


<sup>19</sup> Muallif ishlanmasi

Xulosa o‘rnida, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida bojxona xizmati fiskal faoliyati nafaqat davlat budjeti daromad manbai, balki mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlovchi strategik vosita sifatida ilmiy asoslangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**bojxona xizmati fiskal faoliyatining tahlili va muammolar**” deb nomlanib, unda bojxona xizmati fiskal faoliyati tahlili, fiskal faoliyatga ta’sir etuvchi omillar va ularni turkumlanishi, bojxona organlarida bojxona to‘lovlarini tahlil qilish va prognoz qilish usuli imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llari kabi masalalar tadqiq qilingan.

Yangi O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda va uning tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda bojxona to‘lovlaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Bojxona to‘lovlarining davlat budjeti daromadlari qismidagi ulushi ham yildan-yilga oshib ketmoqda. Bu ko‘rsatkich 2018-yilda 14,5 foiz bo‘lsa, 2024-yilga kelib 23,3 foizni tashkil etayotgani bu yo‘nalish bugungi kunda ahamiyati ortayotganidan dalolatdir (2-rasm).




**2-rasm. Bojxona to‘lovlarining davlat budjeti daromadlari qismidagi ulushi, foizda<sup>20</sup>**

So‘nggi 7 yillik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat budjetining daromadlari tarkibida bojxona to‘lovlari 2018-2024-yillarda 8,8 foizga oshganini bu esa davlat budjetiga o‘tkazilgan bojxona to‘lovlari miqdori ham yildan-yilga oshgan deb aytishimiz mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga bu yo‘nalishda qulayliklar yaratilishi natijasida undirilgan bojxona to‘lovlarining miqdori ham, 2018-2024-yillarda 5,5-martaga oshgan (3-rasm). Bojxona to‘lovlari tushumlarining barqaror o‘sib borayotgani davlat fiskal barqarorligini mustahkamlash bilan bir qatorda, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.


<sup>20</sup> Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



**3-rasm. Bojxona organlari tomonidan 2018-2024-yillarda davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari o'sish dinamikasi trln so'mda<sup>21</sup>**

Bojxona organlari tomonidan 2024-yil davomida jami 115,7 trln. so'm (100 foiz) miqdorida bojxona to'lovlari hisoblangan. Shundan, 63,1 trln. so'm (54,5 foiz) bojxona to'lovlari davlat budjetiga o'tkazilgan, 52,6 trln. so'm (45,5 foiz) bojxona to'lovlaridan imtiyozlar berilgan.

Mamlakatimizda raqobatbardosh ishlab chiqarishni rag'batlantirish, eksport salohiyatni kengaytirish hamda ichki bozorni sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlash maqsadida bojxona to'lovlaridan imtiyozlar beriladi. 2018-yilda bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlar (80,9 foizni) davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari (19,1 foizni) hajmidan ancha ko'p qismini tashkil qilganini va 2024-yilga kelib esa hisoblangan bojxona to'lovlari tarkibida davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari hajmini ancha oshganini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin (4-rasm).



**4-rasm. 2018-2024-yillarda hisoblangan, berilgan imtiyoz va davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari tahlili trln so'mda<sup>22</sup>**

Bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bojxona imtiyozlari bojxona organlarining fiskal siyosatga bog'liq ravishda o'zgarib

<sup>21</sup> Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


<sup>22</sup> Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

boryapti. Bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlarning qisqarishi bojxona to'lovlarining oshishiga olib keladi.

Bojxona to'lovlarini o'sishiga asosiy omillar sifatida import tovarlarining hajmini ko'payishi, imtiyozlarning qisqarishi, tovarlarning bojxona qiymatini aniqlanishini takomillashayotganligi, bojxona to'lovlari stavkalarini o'zgarishi, valyuta kursining o'zgarishi, bojxona sohasida avtomatlashtirilgan axborot tizimidan samarali foydalanilayotganligi, bojxona sohasi bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashayotganligi ta'sir etgan.

Shuningdek, deklarant yoki deklaratsiyalovchi shaxsning bojxona yuk deklaratsiyasiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish bo'yicha murojaatiga asosan bojxona yuk deklaratsiyasini o'zgartirish va (yoki) unga qo'shimcha kiritish uchun (bir dona bojxona yuk deklaratsiyasini tuzatish shakli uchun) bojxona yig'imini bazaviy hisoblash miqdorining 25 foizi miqdorida belgilash bo'yicha taklif ilgari surildi.

Ushbu taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bojxona yig'implari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan joriy qilindi. Taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bojxona organlari tomonidan davlat budgetiga qo'shimcha daromad tushumlari ta'minlandi. Xususan, 2024-yilda 4,6 mlrd so'm miqdorida bojxona yig'implari undirilishi ta'minlandi (5-rasm).



**5-rasm. 2022-2024-yillarda bojxona organlari tomonidan bojxona yuk deklaratsiyasini o'zgartirish kiritish uchun undirilgan bojxona yig'implari tahlili mlrd so'mda<sup>23</sup>**

Ushbu yig'im joriy etish orqali budgetga qo'shimcha tushum manbai hamda deklarantlarni birinchi martada to'g'ri, aniq ma'lumot taqdim etishga undaydi, bu esa bojxona rasmiylashtiruvda samaradorlikni oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonida


<sup>23</sup> Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

mamlakatimizni rivojlantirishning 2030-yilga bo‘lgan strategiyasidagi maqsadlar va ularning bajarilishi bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilandi. Unda: 46-maqsad. “Fiskal barqarorlikni ta‘minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish” -2030-yilda samaradorlik ko‘rsatkichi: Konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past bo‘lgan miqdorda bo‘lishini ta‘minlash” kabi mamlakatimizda fiskal barqarorlikni ta‘minlash bilan bog‘liq vazifalar belgilandi<sup>24</sup>.

Yuqoridagi taraqqiyot strategiyasida qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqib hamda bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha va unga ta‘sir etuvchi omillardan samarali foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta‘sir qiluvchi omillarga import hajmining oshishi, tovarlarning bojxona qiymati to‘g‘ri belgilanishi, bojxona auditi mexanizmidan samarali foydalanish, bojxona ishida axborot texnologiyalaridan foydalanishni keng joriy etish, imtiyozlarni nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish, valyuta kursi oshishi, xavf guruhiga kiritilgan tovarlar ustidan bojxona nazorati samaradorligining oshirilishi, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshishi, vazirlik va idoralararo ma‘lumotlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish, xodimlarni malakasini oshirish, transport tarmoqlari rivojlanishi, bojxona rasmiylashtiruvini to‘g‘ri va tezkorlik bilan amalga oshirish, xorijiy bojxona xizmatlari bilan hamkorlikni rivojlanishi, bojxona qoidabuzulishi holatlarini oldini olish ishlarini kuchaytirish, bojxona xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar va qaror qabul qilinishi, xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish kabi omillar kiradi.

Bizning fikrimizcha, bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta‘sir qiluvchi omillarni shartli ravishda 5 guruhga bo‘lishimiz mumkin (6-rasm).



**6-rasm. Bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta‘sir qiluvchi omillarning turkumlanishi<sup>25</sup>**

Bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillardan oqilona foydalanish, bojxona organlariga belgilangan istiqbol rejaning ortig‘i bilan bajarish va davlat budjeti daromadlarining shakllanishiga olib keladi.

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158 Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>.

<sup>25</sup> Muallif ishlanmasi.

Yuqorida keltirilgan bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni har bir guruhga nimalar kirishini ko'rib chiqamiz (2-jadval).

**2-jadval**

**Bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar<sup>26</sup>**

<b>Toifalar</b>	<b>Omillar</b>
Iqtisodiy omillar	- import hajmining oshishi; - valyuta kursining ko'tarilishi; - transport tarmoqlari rivojlanishi; - bojxona xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan pulli xizmatlarni keng joriy qilish.
Huquqiy va me'yoriy omillar	- bojxona qoidalarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar va qarorlarning qabul qilinishi; - xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish; - bojxona to'lovlari stavkalarini unifikatsiya qilish; - bojxona to'lovlarida beriladigan imtiyozlarni qo'llash va ularni nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish.
Tashkiliy va ma'muriy omillar	- bojxona rasmiylashtiruvini to'g'ri va tezkorlik bilan amalga oshirish; - bojxona ishida axborot texnologiyalaridan foydalanishni keng joriy etish; - bojxona organlarini malakasini oshirish; - chegaradosh mamlakatlardagi bojxona xizmatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish; - vazirlik va idoralararo ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish.
Moliyaviy va nazorat omillari	- tovarlarning bojxona qiymatini to'g'ri belgilash; - bojxona auditori mexanizmidan samarali foydalanish; - qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini undirish; - xavf guruhiga kiritilgan tovarlar ustidan bojxona nazorati samaradorligini oshirish.
Xavfsizlik va korrupsiyaga qarshi kurashish	- korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish; - bojxona qoidabuzarliklarini oldini olish choralarini kuchaytirish.

Tadqiqotlardan ko'rinadiki, bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarning eng asosiylaridan biri bu import hajmining oshishi hisoblanadi.

Shuni inobatga olgan holda, quyida import hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar orasidagi bog'liqlikni korrelyatsion va regression tahlil usullari asosida o'rganib chiqdik. 2010-2024-yillardagi import hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblaganimizda, eng asosiy omillardan biri import hajmi 0,981 ekanligi ma'lum bo'ldi.

Regression tahlil asosida import hajmi va boshqa omillarning o'zgarishiga qarab, undirilgan bojxona to'lovlari qancha miqdorda o'zgarishini aniqladik va uning miqdorlarini quyidagi 3-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

<sup>26</sup> Muallif ishlanmasi.

## 3-jadval

Chiziqli regressiya jadvali<sup>27</sup>

rev	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
imp_vol	1.999	0.109	18.38	0	1.764	2.234	***
Constant	-18408.168	2327.39	-7.91	0	-23436.187	-13380.149	***
Mean dependent var		19456.485	SD dependent var		21000.897		
R-squared		0.963	Number of obs		15		
F-test		337.863	Prob > F		0.000		
Akaike crit. (AIC)		294.671	Bayesian crit. (BIC)		296.087		
*** $p < .01$ , ** $p < .05$ , * $p < .1$							

Asosiy mustaqil o'zgaruvchi – “Import hajmi” – koeffitsiyenti 1,999 bo'lib, bu qiymat 1 mln AQSH dollarga oshganda budjet tushumlari o'rtacha 1,999 mlrd so'mga ortishini anglatadi. Ushbu koeffitsiyent yuqori statistik ahamiyatga ega ( $p < 0.01$ ), bu esa modelda import hajmi davlat budjetiga tushadigan tushumlar uchun muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Modeldagi R-kvadrat qiymati 0.963 ga teng bo'lib, bu esa tushuntirilgan dispersiyaning 96 foizdan ortig'i regressiya modeli orqali izohlanishini anglatadi. Bu juda yuqori aniqlik darajasini ko'rsatadi. Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, import hajmining ortishi davlat budjetiga tushadigan tushumlarning oshishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi va bu iqtisodiy siyosat yuritishda inobatga olinishi lozim.

Keyingi qadamda ko'p omilli chiziqli regressiya amalga oshirilib, davlat budjetiga tushadigan to'lovlarga ( $Y$ ) import hajmi ( $X_1$ ), imtiyozlar ( $X_2$ ), to'lovga tortilmaydigan import hajmi, ( $X_3$ ), o'rtacha tarif stavkasi ( $X_4$ ) omillar tahlil qilingan.

## 4-jadval

Ko'p omilli chiziqli regressiya modeli natijasi<sup>28</sup>

rev	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
imp_vol	1.716	0.043	40.22	0	1.621	1.811	***
privel	0.399	0.042	9.41	0	0.305	0.494	***
nontax_based	-2.809	0.13	-21.61	0	-3.099	-2.52	***
mfn	-10.21	112.832	-0.09	0.93	-261.616	241.197	
Constant	-2101.386	1882.075	-1.12	0.29	-6294.911	2092.139	
Mean dependent var		19456.485	SD dependent var		21000.897		
R-squared		0.92	Number of obs		15		
F-test		3373.973	Prob > F		0.000		
Akaike crit. (AIC)		241.978	Bayesian crit. (BIC)		245.519		
*** $p < .01$ , ** $p < .05$ , * $p < .1$							

Davlat budjetiga tushadigan tushumlar (rev)ga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida import hajmi, imtiyozlar, to'lovdan ozod etilgan import hajmi hamda o'rtacha tarif stavkasi tanlanib, ularning ta'siri OLS regressiya usuli yordamida baholandi. Tahlil natijalariga ko'ra, import hajmi (coef = 1.716,  $p < 0.01$ ) hamda

<sup>27</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>28</sup> Muallif ishlanmasi

berilgan imtiyozlar (coef = 0.399,  $p < 0.01$ ) tushumga ijobiy va statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, to'lovga tortilmaydigan import hajmining ta'siri salbiy bo'lib (coef = -2.809,  $p < 0.01$ ), u budget tushumlarini kamaytiradi. O'rtacha tarif stavkasi esa bu modelda statistik ahamiyat kasb etmagan ( $p = 0.93$ ). Umuman olganda, modelning R-kvadrati 0.92 bo'lib, bu tushumdagi o'zgarishlarning deyarli to'liq qismi tanlangan omillar orqali izohlanishini ko'rsatadi. Model yuqori darajada ishonchli va izohli hisoblanadi ( $F = 3373.973$ ;  $p < 0.01$ ).

Xulosa qilib aytganda, import hajmi va bojxona to'lovlari orasidagi korrelyatsion va regression tahlillardan olingan natijalar, ushbu ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi aloqaning yuqori musbat ekanligini ko'rsatadi. Regression model orqali ushbu aloqani matematik tarzda tushunish va kelajakdagi prognozlar qilish imkoni yaratildi.

Biz dissertatsiya tadqiqotimizda davlat budgetiga tushadigan bojxona to'lovlarini prognoz qilishda ishonchli modelni ishlab chiqdik. Bu davlat budgetini rejalashtirishda va fiskal siyosatni optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakat iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga mos ravishda bojxona to'lovlarini oldindan aniqlash imkoniyati resurslarni samarali boshqarishga va iqtisodiy barqarorlikka erishishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotda biz bojxona to'lovlarini tahlil qilish uchun optimal ARMA modelini aniqlash va uning bashorat qilish qobiliyatini baholashdan iborat. Tadqiqotni amalga oshirishda ochiq manbada ishlaydigan "R studio" dasturidan foydalanildi<sup>29</sup>. ARMA model AR(Autoregressive) va MA(Moving Average) modellaridan tashkil topgan bo'lib, o'zining soddaligi va moslashuvchanligi tufayli keng qo'llaniladi. Ushbu model vaqt qatorlarining tendensiyalarini, mavsumiyligini va tasodifiy o'zgarishlarini hisobga olish orqali bashoratning aniqligini oshiradi. ARMA modeli quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Y_t = \alpha + \sum_{i=1}^p \gamma Y_{t-i} + \sum_{j=1}^q \theta E_{t-j} + E_t$$

Tahlilda, 2013-yil 1-chorakdan 2025-yil 2-chorakkacha ma'lumotlardan iborat bo'lib, jami 50 chorak ma'lumotlaridan iborat.

R dasturi orqali keyingi 14 ta chorakni yoki 2028-yilgacha davlat budgetiga tushadigan bojxona to'lovlarini prognoz qilish amalga oshirildi (5-jadval).

Ushbu tadqiqot bojxona to'lovlarini tahlil qilish uchun vaqtli qatorlarini prognoz qilishning optimal modelini ishlab chiqishga qaratildi. Statistik testlar yordamida statsionarlik tasdiqlangach, optimal model sifatida ARIMA(1,1,0) aniqlanib, u daromadlar tendensiyasini samarali ravishda aks ettirdi. Qoldiq diagnostik tekshiruvlari sezilarli avtoregressiya mavjud emasligini ko'rsatdi, bu esa modelning mosligini tasdiqladi.


Davlat budgetiga tushadigan bojxona to'lovlarini aniq va ishonchli prognoz qilish uchun samarali model yaratish juda muhimdir. Model budgetni rejalashtirish jarayonida aniqlikni oshirishga yordam berib, ishonchli prognozlar taqdim etdi. Bu esa moliyaviy rejalashtirish, bojxona to'lovlarini istiqbol rejasini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

<sup>29</sup> <https://rstudio.com/products/rstudio/download>

**2025-2028-yillarda 14 ta chorak davomida bojxona to'lovlarining o'sish sura'ti ( $\Delta\log(\text{Rev})$ ) ning prognozi (mlrd so'mda)<sup>30</sup>**

Yil/chorak	Prognoz (mlrd so'mda)	Quyi 80 foiz	Yuqori 80 foiz	Quyi 95 foiz	Yuqori 95 foiz
2025Q3	19 011,8	16 290,8	22 187,1	15 011,8	24 077,5
2025Q4	20 822,7	15 119,3	28 677,6	12 762,8	33 972,5
2026Q1	21 820,2	13 403,8	35 521,3	10 356,2	45 974,7
2026Q2	23 259,9	12 085,1	44 767,9	8 545,2	63 313,6
2026Q3	24 631,1	10 823,8	56 051,3	7 003,9	86 621,2
2026Q4	26 149,9	9 719,0	70 358,9	5 755,4	118 813,9
2027Q1	27 735,0	8 718,3	88 231,3	4 724,7	162 809,8
2027Q2	29 427,3	7 823,6	110 686,0	3 880,1	223 182,6
2027Q3	31 218,3	7 019,7	138 834,8	3 186,0	305 897,4
2027Q4	33 120,3	6 298,8	174 152,2	2 616,2	419 291,5
2028Q1	35 137,3	5 651,8	218 448,9	2 148,3	574 707,4
2028Q2	37 277,4	5 071,3	274 015,1	1 764,0	787 737,1
2028Q3	39 547,8	4 550,4	343 714,4	1 448,5	1 079 727,8
2028Q4	41 956,5	4 083,0	431 143,2	1 189,5	1 479 952,8

Quyidagi grafikda esa bojxona to'lovlarining o'sish sura'ti ( $\Delta\log(\text{Rev})$ ) ning prognozi aks ettirilgan.



**7-rasm. Vaqtli qatorlarni bir necha prognozlashning ARIMA modeli<sup>31</sup>**

Grafikdagi ko'k chiziq **o'rtacha prognoz qiymatini** bildiradi, Prognoz hududidagi moviy chiziq kelajak davrlar uchun (51-davrdan boshlab) o'rtacha prognozni ifodalaydi. Ushbu prognoz nisbatan barqaror bo'lib, differensiyalangan logarifmik qiymatning ( $\Delta\log(\text{Rev})$ ) ma'lum bir darajada barqaror qolishi kutilayotganini anglatadi.

Yuqoridagi bojxona organlari tomonidan davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari asosida davlat budjetiga bojxona to'lovlari tushumining 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan Bojxona qo'mitasi tomonidan davlat budjetining tushumlari prognozini shakllantirishda foydalanish taklif etiladi.

<sup>30</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>31</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, dissertatsiya ishining mazkur bobida bojxona xizmati fiskal faoliyati tahlili hamda ushbu faoliyatga ta'sir etuvchi omillar har tomonlama o'rganildi. Tadqiqot davomida 2018–2024-yillarda bojxona to'lovlari miqdori 5,5-martaga oshgani, 2024-yilda esa 115,7 trln so'm bojxona to'lovlari hisoblangani aniqlandi. Shu bilan birga, bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlar salmog'ining yillar davomida kamayishi, fiskal faoliyat samaradorligini oshirayotganini ko'rsatdi. Fiskal faoliyatga ta'sir etuvchi omillar iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, moliyaviy va xavfsizlik kabi besh guruhga ajratilib, ularning har biri bo'yicha tahlillar va tasniflar berildi. Import hajmi fiskal natijalarga muhim ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida tan olindi. Import hajmi va bojxona to'lovlari orasidagi korrelyatsion va regression tahlillardan olingan natijalar, ushbu ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi aloqaning yuqori musbat ekanligini ko'rsatadi. Regression model orqali ushbu aloqani matematik tarzda tushunish va kelajakdagi prognozlar qilish imkoni yaratildi.

Shuningdek, ARIMA modellashtirish usulida bojxona to'lovlarining 2025–2028-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi. Natijalarga ko'ra, prognozlashgan davr mobaynida bojxona to'lovlari bosqichma-bosqich o'sishi kutilmoqda. Bu esa davlat budjeti daromadlarini rejalashtirishda foydalanish yuzasidan xulosalar hamda takliflar shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlari”** deb nomlanib, unda bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirishning ilmiy asoslangan kompleks chora-tadbirlari, ilg'or xorijiy tajribalar asosida bojxona to'lovlarini undirish tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlar asosida isloh qilish, bojxona organlari faoliyatini raqamlashtirish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish hamda interaktiv xizmatlar orqali tadbirkorlarga qulaylik yaratish bo'yicha amaliy choralar haqida bayon qilingan.

Bojxona ma'muriyatchiligining shaffoflik va ishonchlilik tamoyiliga asoslangan sifat jihatidan yangi tizimini yaratish, bojxona sohasida huquqbuzarliklarning oldini olish, 2030-yilga qadar Jahon bankining logistika samaradorligi indeksida (LPI) bojxona rasmiylashtiruv samaradorligi ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining o'rnini 55-pog'onadan past bo'lmagan darajaga ko'tarish, 2026-yilga qadar bojxona deklaratsiyalarini inson omilisiz rasmiylashtiruv ulushini 2 barobarga oshirish, 2028-yilga qadar bojxona ko'rigini 21 foizdan 15 foizga tushirish, 2030-yilga qadar sun'iy intellekt elementlaridan foydalangan holda xavfni boshqarish tizimi samaradorligini 2 barobarga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-57-son Farmoni qabul qilindi<sup>32</sup>.


Ushbu Farmon bilan bojxona organlari faoliyatini raqamlashtirish hamda sohaga startup loyihalar va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirishda yo'nalishida bir qancha vazifa va topshiriqlar belgilab berildi.

---

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2025-yildagi PF-57-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/7451997>.

Tadqiqot amaliy natijasi doirasida jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan "infoCustomsUzBot" telegram-boti va "bojxona\_rejim\_lari\_16" telegram kanali ko'rinishidagi innovatsion ilmiy ishlanma ishlab chiqildi. Mazkur ilmiy ishlanmalar jismoniy shaxslarga bojxona to'lovlari va tartib-taomillari bo'yicha aniq va ishonchli ma'lumotlarni tezkor taqdim etish va bojxona xizmatining fiskal faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarni real vaqt rejimida olish imkoniga ega. Ushbu bot va telegram kanali bojxona tizimida bilim targ'iboti va aholini xabardor qilish vositasi sifatida qo'llash imkonini beradi.

Bojxona xizmati fiskal intizomni mustahkamlash, daromadlarni barqaror oshirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun ilmiy asoslangan kompleks chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi (8-rasm).



**8-rasm. Bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirishning ilmiy asoslangan kompleks chora-tadbirlari<sup>33</sup>.**

Umuman olganda, bojxona to'lovlarni undirish va davlat budjetiga o'tkazish borasida qo'llanilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimda shaffoflikni oshirib, o'z samarasini bermoqda. Bu esa ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2021-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan tovarlarga to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari miqdorini aniqlash bo'yicha dastlabki qarorni qabul qilish tartibi to'g'risida"gi 3343-sonli Nizom tasdiqlandi<sup>34</sup>. Ushbu Nizom bilan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvidan oldin ushbu tovarlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari miqdorini aniqlashda bojxona organlari tomonidan

<sup>33</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 27.10.2021-yildagi 3343-sonli Nizom, <https://lex.uz/docs/5796669>.

dastlabki qarorni qabul qilish tartibi belgilandi. Bu tartib bilan tadbirkorlar import qilinadigan tovarlarga to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari miqdorini oldindan aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar va o'zlarini biznes rejalashtirish jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi. Shundan so'ng, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarga qulaylik, ortiqcha sarf-xarajatlari va vaqtni tejash maqsadida tovarlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari bo'yicha dastlabki qarorni berish interaktiv xizmatini ishlab chiqish zarurati tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-122-son Farmoni bilan to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarini aniqlashda bojxona organi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki qarorni berish jarayonlarini raqamlashtirish vazifasi yuklatildi va ushbu interaktiv xizmat ishlab chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 20-iyundagi № DGU 40384 raqamli guvohnomasi olindi va dasturiy mahsulotlar davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazildi. Ushbu xizmatning asosiy maqsadi – tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga qulaylik yaratish va ularning xarajatlarini oldindan hisoblab chiqish imkoniyatini taqdim etishdir.

Umuman olganda, bojxona to'lovlarini hisoblash va undirishda raqamlashtirishni takomillashtirish hamda bojxona to'lovlari bo'yicha dastlabki qaror olish interaktiv xizmatini joriy qilinishi tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish, bojxona rasmiylashtiruv jarayonida inson omili ishtirokini kamaytirib, korrupsiya holatlarini kelib chiqishini kamaytiradi. Shuningdek, ushbu xizmat va boshqa axborot tizimlari bojxona to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlab, bojxona rasmiylashtiruviga sarflaydigan vaqti hamda mablag'ini qisqartirib, tadbirkorlik subyektlariga o'z faoliyatlarini samarali rejalashtirish imkonini beradi. Bu esa bevosita Respublikamiz tashqi savdo aylanmasini rivojlanishiga va davlat budjetining daromad qismiga tushumlarni ko'payishiga olib keladi va natijada bojxona xizmatining fiskal faoliyati yanada rivojlanishiga olib keladi.

Har bir davlatda bojxona xizmati fiskal faoliyatining tashkil etilishi va uni amalga oshirish mexanizmlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bir-biridan ajralib turadi. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda eng rivojlangan va samarali foydalanadigan davlatlar tajribasini o'rganish va mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlarini tadqiq etish bojxona organlari fiskal faoliyatini takomillashtirishning muhim masalalardan biri hisoblanadi.


Shuningdek, bojxona to'lovlarini qo'llashda xalqaro miqyosda umumiy qoidalar va standartlar qabul qilingan bo'lib, ular fiskal faoliyatning shaffof va samarali tashkil etilishida muhim o'rin tutadi. Jumladan, 1973-yil 18-mayda (1999-yilda qayta ko'rib chiqilgan) qabul qilingan bojxona tartib-taomillarini uyg'unlashtirish va soddalashtirish to'g'risidagi Xalqaro (Kioto) konvensiyasi bojxona to'lovlarini tartibga soluvchi xalqaro mezon va talablarni belgilab beradi. Ushbu Konvensiyaning asosiy ilovasi E8./F11. bandida "bojxona to'lovlari" - tovarlarning bojxona hududiga kiritilishi yoki u yerdan chiqarilishi munosabati bilan undiriladigan to'lovlar sifatida ta'riflangan. Shuningdek, E16./F12 bandida esa "bojlar va soliqlar" deganda import va eksport operatsiyalari doirasida qo'llanadigan bojlar va soliqlar tushunilishi aniq belgilangan.

Bundan tashqari, ushbu konvensiyaning bosh ilovasining “Bojlar va soliqlar” IV bobining 4.14-standartida “Bojxona xizmati tovarlar deklaratsiyasida yoki bojlar va soliqlarni hisoblashda yo‘l qo‘yilgan xatolar qonun hujjatlarida belgilanganidan kam miqdordagi bojlar va soliqlarni yig‘ish yoki yig‘ishga olib kelishi mumkin yoki olib kelgan deb topsa, u kamchilikni tuzatadi va to‘lanmagan summalarini yig‘adi. Biroq, ushbu summa milliy qonunchilikda belgilangan eng kam miqdordan kam bo‘lsa, bojxona xizmati ushbu summani undirib olmaydi va yig‘maydi” deb keltirilgan. Ushbu Bosh ilovaning 4.17- standartida “Bojlar va soliqlarni to‘lashni kechiktirish 14 kundan kam bo‘lmagan muddatni tashkil etadi” va 4.24-standartida “Belgilangan miqdor milliy qonunchilikda belgilangan eng kam miqdordan kam bo‘lsa, to‘lovlar qaytarib berilmaydi” deb alohida belgilab berilgan. Mazkur norma milliy qonunchiligimizda mavjud emas.

Yuqoridagilarni inobatga olib, amaldagi bojxona kodeksining bojxona to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha qarzdorlikning yuzaga kelishi holatlari keltirilgan 347-moddasiga quyidagi yangi norma kiritish taklif etiladi: “Agar bojxona to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha qarzdorlik bazaviy hisoblash miqdorining yigirma foizidan oshmasa, u shakllanmaydi”. Hamda bojxona kodeksining ortiqcha to‘langan yoki undirilgan bojxona to‘lovlarining summalarini qaytarish to‘g‘risidagi 353-moddasiga “Ortiqcha to‘langan yoki undirilgan bojxona to‘lovlarining summasi bojxona organlari tomonidan quyidagi hollarda qaytarilmaydi, agar: uning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining yigirma foizidan oshmasa” degan yangi norma bilan to‘ldirish taklif etiladi.

Bugungi kunda bojxona to‘lovlarini undirish tizimini xalqaro amaliyotlar va zamonaviy iqtisodiy talablar asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni, bojxona kodeksi, soliq va budget kodekslarida bojxona to‘lovlari tartibi va undirish asoslari belgilangan bo‘lib, bojxona organlari fiskal funksiyani amalga oshirishda muhim o‘rin egallaydi.



**9-rasm. Bosh ta'minot sifatida taqdim etiladigan bojxona to‘lovlarini to‘lanishini ta‘minlash usullari<sup>35</sup>**

Bojxona to‘lovlarini to‘lashni ta‘minlash usullari - pul mablag‘lari, garov, bank kafolati, sug‘urta, kafillik kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan bosh ta‘minot tizimi bojxona jarayonlarini soddalashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va tashqi savdo operatsiyalarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Turkiya, Singapur va Xitoy kabi davlatlarda bank kafolati, sug‘urta polisi yoki reyting tizimlari orqali bojxona to‘lovlarining bosh ta‘minotini taqdim etish keng joriy qilingan.

<sup>35</sup> Muallif ishlanmasi.

O‘zbekistonda ham mazkur ilg‘or tajribalarni inobatga olgan holda 2024-yil 27-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining bojxona kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunda bosh ta‘minot tushunchasi 339<sup>1</sup>-modda orqali kiritildi. Mazkur yangilikka muvofiq, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan bir vaqtning o‘zida bir nechta bojxona operatsiyalari amalga oshirilayotganda, umumiy kafolat berish orqali bojxona to‘lovlarini to‘lashni ta‘minlash imkoni yaratildi.

Bosh ta‘minot bu to‘lovchi tomonidan muayyan vaqt ichida bir necha bojxona operatsiyalarini bajarish chog‘ida yuzaga keladigan bojxona to‘lovlarini to‘lanishini bank kafolatini taqdim etish, bojxona to‘lovlarini to‘lash majburiyatini sug‘urtalash yoki tovarlarni garovga qo‘yish orqali ta‘minlashdir (9-rasm).

Ushbu mexanizm tadbirkorlarga moliyaviy yukni kamaytirish, rasmiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish hamda bojxona boshqaruvida barqarorlikni ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xorijiy davlatlarni tajribasi asosida bojxona to‘lovlarini undirishning samaradorligini oshirish maqsadida bojxona to‘lovlarini to‘lashda bosh ta‘minot tizimini joriy qilish taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, dissertatsiya ishining ushbu bobida bojxona xizmati fiskal faoliyatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo‘nalishlari keng yoritilgan. Shu bilan birga, tadbirkorlarga qulaylik yaratish bo‘yicha interaktiv xizmatlar joriy qilindi hamda bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## XULOSA

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida bojxona xizmatining fiskal faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida muhim xulosalar ishlab chiqildi va takliflar tayyorlandi:

1. Bizning fikrimizcha, “Bojxona xizmati fiskal faoliyati deganda – bojxona organlari tomonidan undirilishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlarni davlat budjetiga o‘tkazishni ta‘minlashdir” – deb ta‘rif berish maqsadga muvofiq.

2. Bojxona to‘lovlarini qo‘llash orqali tashqi savdo aylanmasini tartibga solish, iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash va fiskal funksiyalarni amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

3. O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlari tarkibiga bojxona boji, aksiz solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, bojxona yig‘imlari hamda boshqa turdagi to‘lovlar kiradi. Har bir to‘lov turi o‘ziga xos hisoblash tartibi va uslubiyatiga ega.

4. TIF TN kodi yoki nomi bo‘yicha o‘xshash bo‘lgan tovarlarni import bojining stavkalarini bir xil qo‘llanilishi pastroq stavkalari qo‘llaniladigan pozitsiyada tasniflash holatlarini oldini olinishiga erishiladi.

5. Bojxona to‘lovlarini hisoblash va undirish tizimini takomillashtirish uchun amaldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi zarur. Bu esa, o‘z navbatida, davlat budjeti daromadlarining oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bojxona to‘lovlariga oid imtiyozlarni qo‘llash tartibini takomillashtirish, ularni maqsadli va shaffof nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish ham fiskal tushumlarni ko‘paytirishga yordam beradi.

6. Bizning fikrimizcha, bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta‘sir qiluvchi

omillarni shartli ravishda 5 guruhga: iqtisodiy omillar, huquqiy va me'yoriy omillar, tashkiliy va ma'muriy omillar, moliyaviy va nazorat omillari, xavfsizlik va korrupsiyaga qarshi kurashishga ajratish mumkin. Ushbu omillardan samarali va oqilona foydalanish bojxona xizmati fiskal faoliyati takomillashishiga olib keladi. Shuningdek, bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilinib, besh guruhga ajratilgan. Ushbu omillarning eng asosiylaridan biri bo'lgan import hajmini korrelyatsion va regression tahlillar natijasiga ko'ra, import tarkibida soliqqa tortiladigan importning ulushini oshirish va geografiyasini kengayishi, bojxona to'lovlari undiriluvchanligini oshiradi.

7. Import hajmi va bojxona to'lovlari o'rtasidagi korrelyatsion va regression tahlil natijalarida yuqori musbat bog'lanish mavjud bo'lib, import hajmi 1 mln. dollarga oshganda, bojxona to'lovlari taxminan 2 mlrd so'mga ko'paytirishi aniqlandi. Mazkur natijalar bojxona organlari uchun budget tushumlarini prognozlash va moliyaviy rejalashtirishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

8. Davlat budgetiga tushadigan bojxona to'lovlarini prognoz qilishda ishonchli modelni ishlab chiqish davlat budgetini rejalashtirishda va fiskal siyosatni optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shundan kelib chiqib, bojxona organlarida bojxona to'lovlarini prognozlashtirishda ARIMA modeli orqali [R] – dasturiy ta'minoti yordamida tahlil qilish metodi batafsil yoritildi hamda 2028-yilgacha davlat budgetiga undiriladigan bojxona to'lovlari ilmiy asoslangan holda prognoz qilindi.

9. Chet mamlakatlardan olib kelinayotgan mahsulotlar bo'yicha elektron axborot almashinuvi orqali hamkor davlatlar sonini oshirish, tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash jarayonini tezlashtiradi va bojxona to'lovlarining yig'ilishini yaxshilaydi. Shuningdek, vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish ko'lamini kengaytirish tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga keng imkoniyatlar yaratadi.

10. Bojxona to'lovlarini hisoblash va undirish jarayonini raqamlashtirish hamda dastlabki qaror olish bo'yicha interaktiv xizmatni joriy etish tashqi savdo faoliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv bojxona rasmiylashtiruvining shaffofligini ta'minlab, inson omilini kamaytirish va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga imkon yaratadi. Shuningdek, bojxona to'lovlari bo'yicha aniq va ochiq ma'lumotlarning taqdim etilishi tadbirkorlik subyektlariga vaqt va xarajatlarni tejash hamda faoliyatlarini puxta rejalashtirish imkonini beradi.

11. Ortiqcha to'langan bojxona to'lovlari tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisiga 3 ish kuni davomida qaytarilishi, bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lashning eng kam muddati 14 kun etib belgilanishi va ushbu muddatda foizlar undirilmasligi, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining undirilmaydigan va qaytarilmaydigan eng kam miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizi etib belgilanishi bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashishiga olib keldi.

12. Bojxona operatsiyalarini soddalashtirish maqsadida bosh ta'minot tizimi qo'llanilishi TIF ishtirokchilariga bir nechta bojxona operatsiyalari uchun yagona kafolat taqdim etish imkonini beradi. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun sarf-xarajatlar va vaqt sarfi kamayishiga olib keladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ФАРХОДОВ ФАРРУХ ФУРҚАТОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ  
ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ В ПРОЦЕССАХ МЕЖДУНАРОДНОЙ  
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ташкент– 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за № B2023.1.PhD/Iqt2787.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательного портала «Ziynet» (www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:** Пардаев Тулкин Насирович  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Карлибаева Рая Хожабаевна  
доктор экономических наук, профессор

Пардаев Жамшид Музаффарович  
Кандидат экономических наук, доцент

**Ведущая организация:** Банковско-финансовая академия Республики  
Узбекистан

Защита диссертации состоится «08» 01 2026 года в 16:00 ч. на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученой степени при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100003, г.Ташкент, ул.ИсламаКаримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер № 1865). Адрес: 100003, г.Ташкент, ул. ИсламаКаримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239 43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «23» 12 2025 года.

(протокол реестра № 2 от «23» 12 2025 года.



**С.У.Мехмонов**  
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

**У.В.Гафуров**  
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

**С.К.Худойкулов**  
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

### **Актуальность и востребованность темы диссертации.**

Совершенствование фискальной деятельности таможенной службы в мировой экономике имеет важное значение для обеспечения прозрачности внешнеэкономических отношений государств, повышения устойчивости налогово-таможенных поступлений и снижения транзакционных издержек в международных торговых процессах, что в целом способствует поддержанию макроэкономической стабильности. Современные фискальные механизмы — риск-ориентированный контроль, цифровая декларация, интегрированный обмен данными и системы «Единое окно» — способствуют точному исчислению таможенных платежей, снижению рисков уклонения от уплаты налогов и увеличению бюджетных поступлений. Кроме того, сравнительные исследования, проводимые Всемирной таможенной организацией, Всемирным банком и Азиатским банком развития, показывают, что эффективность фискальных функций таможни напрямую связана с инвестиционной привлекательностью страны и ростом объемов внешней торговли. В частности, по данным Всемирной таможенной организации, «в странах, внедривших цифровое фискальное управление, среднее время обработки заполненных импортных деклараций сократилось на 30–40%»<sup>1</sup>. Также совершенствование фискальной деятельности усиливает функции прогнозирования, аудита и анализа таможенных органов, обеспечивая формирование конкурентоспособной и устойчивой фискальной инфраструктуры в условиях глобальной экономики. Следовательно, эффективное фискальное управление в таможенной сфере является стратегическим фактором, углубляющим экономическую безопасность, бюджетную устойчивость и интеграцию стран в международную торговлю.

В мире научные исследования по совершенствованию фискальной деятельности таможенной службы в основном сосредоточены на цифровизации, углублении риск-ориентированных систем контроля, расширении международной интеграции данных и повышении фискальной прозрачности. В частности, научные изыскания направлены на развитие электронного декларирования, блокчейн-основанного контроля транзакций, платформ «Единое окно», а также интеллектуальных аудиторских моделей, позволяющих с использованием автоматизированное оформление и искусственного интеллекта снижать потенциальные налогово-таможенные риски. Одновременно зарубежные исследования уделяют приоритетное внимание оценке эффективности фискальной деятельности посредством анализа «Big Data» для выявления схем уклонения от налогов, внедрения механизмов цифровой идентификации, оставляющих «цифровой след» в трансграничной торговле, а также разработки прогнозных моделей бюджетных поступлений. Современные подходы также рассматривают

---

<sup>1</sup> World Customs Organization, Customs Modernization Report, 2022

гармонизацию таможенной фискальной политики с либерализацией торговли, стандартизированными тарифными нагрузками и правилами, уменьшающими международную фрагментацию, что не только повышает фискальную эффективность, но и способствует укреплению устойчивости глобальных цепочек поставок.

В Узбекистане реформы по совершенствованию фискальной деятельности таможенной службы направлены главным образом на углубление цифровой трансформации, повышение фискальной прозрачности и укрепление эффективности таможенно-тарифного администрирования, что способствует устойчивому росту налогово-таможенных поступлений в национальной экономике. В числе реализованных мер - внедрение систем «E-Transit», «Единое окно» таможенная информационная система, усовершенствованной системы оценки рисков, автооформления и услуг по выпуску товаров посредством предварительного декларирования. В результате значительно сократилось время оформления грузов, проходящих таможенную регистрацию, снизилась административная нагрузка и повысилась точность фискального контроля<sup>2</sup>. Для эффективного выполнения указанных задач особое внимание должно быть уделено точному исчислению таможенных платежей и их полному и своевременному взысканию. Поскольку правильность расчёта и своевременное поступление таможенных платежей в бюджет являются важными факторами фискальной устойчивости и экономического управления. Кроме того, актуальными остаются вопросы применения современных информационно-коммуникационных технологий, комплексного изучения фискальной деятельности, разработки методологических подходов и определения этапов их реализации. В данном контексте значимую роль играют научные исследования, посвящённые эконометрическому анализу факторов, влияющих на фискальную деятельность таможенной службы.

Указ Президента Республики Узбекистан от 25 марта 2025 года № УП-57 «О мерах по повышению эффективности деятельности органов Государственной таможенной службы», Указ от 30 января 2025 года № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан -2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики», Указ от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан-2030», Указ от 27 апреля 2022 года № УП-122 «О дополнительных мерах по организации деятельности органов государственной таможенной службы и дальнейшему совершенствованию таможенного администрирования», Указ от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указ от 5 июня 2020 года № УП-6005 «О реформировании таможенного администрирования и совершенствовании деятельности органов Государственной таможенной службы Республики Узбекистан», Указ от

---

<sup>2</sup> Источник: Указ Президента Республики Узбекистан от 27 апреля 2022 года № УП-122 «О дополнительных мерах по организации деятельности органов государственной таможенной службы и дальнейшему совершенствованию таможенного администрирования».

5 октября 2020 года № УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по её эффективной реализации», а также постановление от 25 декабря 2024 года № ПП-455 «О мерах по обеспечению исполнения Закона Республики Узбекистан «О Государственном бюджете Республики Узбекистан на 2025 год» и другие нормативные документы, относящиеся к данной сфере, определяют задачи, выполнению которых в определённой степени способствует настоящее диссертационное исследование.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Организационно-правовые основы налогов и таможенных платежей, общетеоретические аспекты их возникновения и развития, а также методологические положения нашли своё отражение в трудах зарубежных экономистов А. Н. Козирина, М. Жамкеевой, В. В. Попова, И. В. Гомона, М. В. Васильевой, Е. В. Чипуренко, В. Г. Свинохова и других исследователей<sup>3</sup>.

В трудах узбекистанских экономистов С. А. Алимбаева, С. А. Арипова, Ш. Н. Боймурадова, Р. А. Турапова, Т. Н. Пардаева, А. А. Шадманкулова, Ш. У. Азизова, З. Х. Маккамова, О. А. Сарманова и других исследователей изучены фискальная деятельность таможенной службы, порядок исчисления таможенных платежей, их взыскание и перечисление в государственный бюджет, а также теоретические и организационно-правовые аспекты определения таможенной стоимости<sup>4</sup>. В то же время в исследованиях другой группы отечественных учёных – Х.П. Абулкасимова, А. А. Маматова, С. А.

---

<sup>3</sup> Козырин А. Таможенная пошлина / Москва. 1998. S.299., Жамкеева М. Мировой опыт таможенно-тарифного регулирования внешнеэкономической деятельности // Актуальные проблемы экономики, 2012, №9(135). – S.303., Попов V.V. Формирование методологии многоуровневого экономического анализа таможенных платежей. Диссертация. Оренбург - 2023., Гомон I.V., Непарко M.V., Решетова N.I. Таможенные платежи как основа формирования федерального бюджета. Экономика и предпринимательство. 2017;(9–3):37–40., Василева M.V. Учётно-информационная база проведения налогового анализа как этапа налогового планирования на микроуровне /M.V. Василева// Управленческий учет. - 2010. №1. С. 18.; Чипуренко Ye.V. “Методология налогового анализа и отсенок влияния системы налогообложения на деятельность коммерческих организаций”. Автореферат дис.д.э.н. М.: 2011. 16-17 с.;Свинохова V.G. Таможенное дело.М.2005 г. с.251.

